

Sinf navbatchilari



1-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.



Sinfda o'quvchilar navbatchi bo'lishadi. Ular derazalarni ochib, sinfni shamollatishadi, partalarni artishadi. Deraza tokchasidagi gullarga suv quyishadi. Doskani artib, darsga tayyorlashadi.

Navbatchilar – ustozning yordamchilari.



1-mashq. Nuqtalar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Sinfimiz katta va yorug'. Sinfimizda doskaning ... kitob javoni bor. Doskaning ... televizor bor. Deraza ... gullar qo'yilgan. Partalarning ... tomonida kitob javonlari bor. Javon ... har xil kitoblar qo'yilgan.

Foydalanish uchun so'zlar: ichiga, oldiga, tepasida, yonida, orqa.



2-topshiriq. Rasm asosida matn tuzing.





2-mashq. Soʻzlar yordamida sinfxonangiz haqida matn tuzing.

Namuna: Javon ustida globus bor.

chapda

tepasida

ustida

ichida

oldida

tagida


orqasida

yonida



3-topshiriq. Krossvordni yeching.

1. Yerning shar shaklidagi kichik nusxasi.
2. Sinfni kislorodga to'yintiruvchi o'simliklar.
3. Kitob-daftarlar turadigan jihoz.
4. Yozuv taxtasi.
5. Yoniga o'tirib dars qilinadigan joy.
6. Ochganda toza havo kiradi.
7. Ustozning ish qurollari turadigan joy.



Lug'atdagi soʻzlarni yodlang. Berilgan soʻzlardan soʻz birikmalari tuzing.

ustida

ichida

oldida

tagida

orqasida

yonida

